

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

NAZIROV AYUBXON SULTONJON O‘G‘LI

**BINOLARNING TEMIRBETON USTUN VA G‘ISHT DEVOR
KONSTRUKSIYALARINI KOMPOZIT ARMATURA YORDAMIDA
KUCHAYTIRIB, YUK KO‘TARISH QOBILYATINI OSHIRISH**

05.09.01-“Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar”

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Nazirov Ayubxon Sultonjon o‘g‘li

Binolarning temirbeton ustun va g‘isht devor konstruksiyalarini kompozit armatura yordamida kuchaytirib, yuk ko‘tarish qobilyatini oshirish.....3

Назирова Аюбхон Султонжон угли

Усиление железобетонных колонн и кирпичных стеновых конструкций зданий с помощью композитной арматуры и повышение несущей способности.....21

Nazirov Ayubkhon Sultonjon ugli

Strengthening of reinforced concrete columns and brick wall structures of buildings using composite reinforcement and increasing the load-bearing capacity.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI**

ILMIY KENGASH

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

NAZIROV AYUBXON SULTONJON O‘G‘LI

**BINOLARNING TEMIRBETON USTUN VA G‘ISHT DEVOR
KONSTRUKSIYALARINI KOMPOZIT ARMATURA YORDAMIDA
KUCHAYTIRIB, YUK KO‘TARISH QOBILYATINI OSHIRISH**

05.09.01-“Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar”

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Farg‘ona-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4520 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ferpi.uz va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Akramov Xusnitdin Axrarovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmanov Valiaxmat Fayzillayevich
texnika fanlari doktori, professor

Yuvmitov Anvar Sayfullayevich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta
ilmiy hodim

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona politexnika instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.T.106.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “5” mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel: (99873) 241-12-06; e-mail: ferpi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona politexnika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 278-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Farg‘ona sh., Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel.: (99895) 028-42-20; faks: (99895) 028 42 20, e-mail: farpiarm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “18” fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil “14” fevraldagi 1/2025-1- raqamli reestr bayonnomasi).

Z.A. Yunusov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori

Sh.A. Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

S.F. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy qurilish jarayonlarining jadal rivojlanishi, shuningdek mavjud bino va inshoot konstruksiyalarini kuchaytirish hamda ularning xizmat muddatini uzaytirishda zamonaviy kompozit materiallar va armaturalardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Temirbeton va g'isht konstruksiyalar mustahkamligini oshirish masalalari asosan, yangi konstruktiv sxemalarni loyihalash, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, konstruksiyalarga ta'sir etayotgan yuklarning ortishi yoki bino hajmiy-rejaviy o'lchamlarining o'zgarishi kabi omillar ta'sirida yuzaga keladi. Agar bino va inshootlarni loyihalashda ushbu muammo yuqori mustahkamlikka ega materiallardan foydalanish orqali hal qilinadigan bo'lsa, qayta ta'mirlash paytida esa metal, temirbeton iskanjaga olib kuchaytirish, konstruksiyalarni tashqi tomondan armaturalash yoki maxsus qorishmalar bilan ineksiya qilish singari turli xil konstruktiv yechimlar orqali hal qilinadi. Jumladan konstruksiyalarni kuchaytirishda zamonaviy kompozit materiallaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon miqiyosida hozirgi kunda, turli tarkibli kompozit materiallardan tayyorlangan armaturalardan foydalanib konstruksiyalarni kuchaytirish, bino va inshoot konstruksiyalarining ustuvorligini, mustahkamligini va umrboqiyiligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qurilish konstruksiyalarini kuchaytirishga ehtiyoj bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash paytida, balki yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning jismoniy eskirishi, texnogen jarayonlar yoki konstruksiyalarga tashqi mexanik ta'sirlar bilan bog'liq nuqsonlar va shikastlanishlarning paydo bo'lishi tufayli ham murojaat qilinadi. Bu mavjud qurilish konstruksiyalarini kuchaytirish muammosiga qiziqishning ortishi bilan bog'liq.

Respublikamizda qurilish sohasini rivojlantirish va qurilishda innovatsion zamonaviy kompozit materiallarni qo'llab, konstruksiyalarning xususiy og'irligini kamaytirish, metal ruda zahiralarni tejash, bino va inshoot konstruksiyalarining ishonchliligini ta'minlash, hamda ularning yangi konstruktiv yechimlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va Farmonlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalangan holda bino va inshoot konstruksiyalari mustahkamligini oshirish haqida so'z yuritilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan kompozit armaturalardan foydalangan holda kuchaytirilgan beton va temirbeton konstruksiyalarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini tahlil qilish, kuchaytirilgan siqilishga ishlovchi beton va g'isht konstruksiyalarning mustahkamligi hamda ustivorligi bo'yicha hisoblash va ularni konstruksiyalashga doir amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Farmonlarda hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan va kerakli darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining XIV “Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavjud bino va inshootlarning yuk ko‘taruvchi temirbeton ustun va g‘isht devorning derazalar orasidagi qismi konstruksiyalarini turli xildagi kompozit armaturalar yordamida kuchaytirib, ularning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan jahonning yetakchi ilmiy markazlari, universitetlari va ilmiy tadqiqot institutlarining taniqli olimlari, jumladan: F.E.Richart, A.B.Brandtzaeg, R.L.Brown, J.B.Mander, M.J.Priestly, R.R.Park, S.D.Matthys, H.M.Toutanji, K.T.Audenaert, J.G.Teng, J.F.Chen, S.T.Smith, L.S.Lam, G.H.Hegemier, F.D.Seible, V.F.Karbhari, Y.G.Xayutin, V.L.Chernyavskiy, E.Z.Akselrod, V.G.Jemchujnikov, N.M.Onufriyev, M.K.Ishuk, I.G.Frolov, E.M.Ishuk, E.R.Xilo, B.S.Popovich, A.I.Malganov, V.S.Plevkov, A.I.Polishuk, R.N.Kvitnitskiy, V.A.Kameyko, M.Y.Pildish, Y.A.Belensov va boshqalar shug‘ullanib, ushbu tadqiqotlar yo‘nalishida samarali ilmiy tadqiqot ishlarni bajarganlar va konstruksiyalarni kuchaytirish masalalarini ilmiy hal qilishda samarali natijalarga erishishgan.

G‘isht konstruksiyalar mustahkamligi va deformatsiyalanish masalalari, shu jumladan turli yuklanish sxemalari ostida ishlash masalalarini L.I.Onishuk, V.A.Gastev, S.V.Polyakov, N.I.Kravchen, A.A.Yemelyanov, L.N.Piskely, G.A.Geniev, V.T.Grozdov, A.N.Voronov va boshqalar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganib chiqishgan.

Yurtimiz olimlari B.A.Asqarov, A.A.Xodjayev, X.A.Akramov, A.A.Rahmonov, A.I.Adilxodjayev, A.A.Ashrabov, S.R.Razzaqov, S.S.Shaumarov, V.F.Usmonov, U.Faxriddinov, S.A.Xolmirzayev, P.T.Mirzayev, Sh.A.Umarov, Sh.M.Davlyatov va boshqalar kompozit armatura bilan armaturalangan konstruksiyalarning mustahkamlik, kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini tadqiq qilish bo‘yicha turli yillarda bir qator tadqiqotlar olib borib, o‘z tadqiqotlari asosida muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishishgan.

Jahonda va yurtimizda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarning tahlili, temirbeton va g‘isht konstruksiyalarini kuchaytirish tajribasi shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy kompozit materiallar va armaturalar yordamida konstruksiyalarni kuchaytirish bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqilgan va amalda o‘z isbotini topgan. Biroq amaldagi holat, ushbu yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni kuchaytirishda turli xildagi kompozit armaturalarning qo‘llanilishi bo‘yicha, olib borilgan ishlar yetarli darajada emasligi va yanada ko‘proq ilmiy tadqiqotlarni talab etayotganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Farg‘ona politexnika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 25/2022 “Mavjud bino va inshootlar konstruksiyalarining seysmik mustahkamligini oshirishda optimal yechimlarni tadqiq qilish” (2022-2023) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: mavjud binolarning temirbeton ustun hamda g'isht devorning derazalar orasidagi qismini shisha kompozit armatura bilan kuchaytirishni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

temirbeton va g'isht konstruksiyalarning shikastlanishi hamda deformatsiyalanish xususiyatlarini aniqlash;

mahalliy ishlab chiqarilgan shisha kompozit armaturalarning fizik-mexanik xossalari aniqlash;

shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan temirbeton ustun konstruksiyalarning statik yuk ta'sirida kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash;

shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan g'isht devorning derazalar orasidagi qismining statik yuk ta'sirida kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash;

shisha kompozit armaturadan foydalangan holda temirbeton ustunlar va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirish usullarini ishlab chiqish;

konstruksiyalarni kuchaytirishda shisha kompozit armaturalarni hisoblash uchun avtomatlashtirilgan dasturni ishlab chiqish;

muhandis-quruvchilar uchun konstruksiyalarni shisha kompozit armatura bilan kuchaytirish usullarini, beton sinflari va betonlash texnologiyasi tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan temirbeton ustun hamda g'isht devorning derazalar orasidagi qismi olingan.

Tadqiqotning predmetini shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan temirbeton ustun hamda g'isht devorning derazalar orasidagi qismining yuk ko'tarish qobiliyatining ortishi, shuningdek turli yuk qo'yilish eksentrisitetlaridagi mustahkamlikni aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini qisqa muddatli yuklar ta'siriga sinash, tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish, loyihalashning konstruktiv yechim usullari, tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish hamda taqqoslash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

shisha kompozit armaturalarning mexanik xossalari nazariy hamda eksperimental baholash orqali ularni temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirishda qo'llash yuk ko'tarish imkoniyatlarini oshirishi asoslab berilgan;

markaziy va nomarkaziy siqiluvchi temirbeton ustunlarni kuchaytirishda shisha kompozit armaturalarni qo'llash tashqi statik kuchlar ostida beton va armaturalarda paydo bo'ladigan ichki zo'riqish kuchlarining o'zgarish qonuniyatiga ko'ra mustahkamlikni oshirishi aniqlangan;

markaziy va nomarkaziy siqilishga ishlovchi temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismlarni kuchaytirishda shisha kompozit va po'lat armatura bilan xomutlangan konstruksiyaning qo'llanilishi natijasida ularning yuk ko'tarish qobiliyatiga ta'siri 1,1 marta ortganligi asoslab berilgan;

shisha kompozit armaturalarni siqiluvchi temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirishda qo'llaganda, konstruksiya mustahkamligi

va yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish imkoniyatlari bilan 1,05 martaga ustuvorligi ortganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

temirbeton ustun hamda g'isht devorning derazalar orasidagi qismini shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirish bo'yicha hisoblash formulalari takomillashtirilgan;

konstruksiyalarni kuchaytirishda kompozit xomut o'rniga, po'lat xomutlardan foydalanish va ularning qadamini kamaytirish, konstruksiyaning yuk ko'tarish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslangan.

konstruksiyalar "Iskanjaga olib kuchaytirish" yordamida kuchaytirilganda, yuk qo'yilish eksentrisitet qiymatining "Iskanjaga olib kuchaytirish" samarasiga ta'siri asoslab berilgan;

shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini hisoblashning ishlab chiqilgan amaliy usullarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi hisoblash dasturlari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarini ishonchligi tadqiqotlar zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy hisoblarning qurilish me'yorlari va qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajriba natijalari me'yoriy hujjatlarda keltirilgan natijalar bilan taqqoslanganligi, tajriba va nazariy tadqiqot natijalarining o'zaro mutanosibliigi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismi konstruksiyalarini shisha kompozit armatura bilan kuchaytirishni hisoblash usullarini takomillashtirish, kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan konstruksiyalarni hisoblash nazariyasini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, konstruksiyalarni kuchaytirishda qo'llanilgan shisha kompozit armaturaning yuk ostidagi zo'riqishlarini real baholash usuli hamda konstruksiyaning mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Binolarning temirbeton ustun hamda g'isht devorning derazalar orasidagi qismini shisha kompozit armatura bilan kuchaytirishni tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shisha kompozit armaturalarning mexanik xossalarni nazariy va eksperimental baholash orqali ularni temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirishda qo'llash yuk ko'tarish imkoniyatlarini oshirishi asoslab berilganligi hamda markaziy va nomarkaziy siqiluvchi temirbeton ustunlarni kuchaytirishda shisha kompozit armaturalarni qo'llash tashqi statik kuchlar ostida beton va armaturalarda paydo bo'ladigan ichki zo'riqish kuchlarining o'zgarish qonuniyatiga ko'ra mustahkamlikni oshirishi aniqlanganligiga oid takliflar Farg'ona viloyati Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida xududiy nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar 12-sonli Ma'rifat MFY Qomus ko'chasida joylashgan mashina traktor parklari ma'muriy bino va inshootlariga qo'shimcha to'rtinchi va beshinchi qavatlarini qo'shishda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 21-oktabrdagi 24-06/11005-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihalash hamda hisoblash jarayonlariga sarflanadigan vaqtning 15% gacha tejalishiga erishilgan;

markaziy va nomarkaziy siqilishga ishlovchi temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismlarni kuchaytirishda shisha kompozit va po'lat armatura bilan xomutlangan konstruksiyaning qo'llanilishi natijasida ularning yuk ko'tarish qobiliyatiga ta'siri 1,1 marta ortganligi hamda shisha kompozit armaturalarni siqiluvchi temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirishda qo'llaganda, konstruksiya mustahkamligi va yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish imkoniyatlari bilan 1,05 martaga ustuvorligi ortganligi xususidagi takliflar "FARG'ONAFUQAROLOYIHA" MChJ tomonidan Quva tumani, Quva MFY Qayqubbod ko'chasida joylashgan binoda joriy qilingan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2024-yil 18-oktabrdagi 02/15-3078-son ma'lumotnomasi). Natijada konstruksiyalarni kuchaytirishda po'lat armaturaga nisbatan 30% iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, 2ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan EHM uchun dasturiy ta'minotga №DGU 42173 va №DGU 42282 raqamli egalik huquqini belgilovchi guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida bajarilgan dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ifodalangan, tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishga tadbiq etilganligi ta'kidlangan, tadqiqot ishlari natijalarining aprobatsiyasi haqida ma'lumotlar va dissertatsiya mavzusi bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, shuningdek, dissertatsiya strukturasi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini kuchaytirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlar, mahalliy va xorijiy nashrlar, jahon va O'zbekiston amaliyotida kompozit polimer armaturalarni ishlab chiqish va qo'llashning bugungi holati va rivojlanishi tahlil qilingan. Qurilish konstruksiyalarini kuchaytirishda kompozit materiallardan foydalanish bo'yicha jahon va yurtimizda olib borilgan ilmiy ishlarning nazariy asoslari va amaliy usullari tahlil qilingan. Qurilish konstruksiyalarini ulardan foydalanish jarayonida kuchaytirish zarurati binolarni rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash jarayonida, materiallar korroziviyasi, tajovuzkor muhitning mexanik ta'siri natijasida yetkazilgan jismoniy yemirilish hamda turli xil shikastlanishlar, konstruksiyalarni sifatli ishlab chiqarish va qurilish materiallarini ishlab chiqarishda standartlar talablarining buzilishi-montaj ishlari,

konstruksiyalardan foydalanish qoidalari va ishlab chiqarish texnologiyasi shartlarini buzilishi, shuningdek, konstruksiyalarni loyihalashdagi xatolar natijasida yuzaga keladigan muammolarning asosiy sababi va ularning texnik yechimlari haqida kengroq ma'lumotlar berilgan.

Temirbeton va g'isht konstruksiyalar eng ko'p qo'llaniladigan qurilish materiallari bo'lgani uchun, shuningdek bino va inshootlarni rekonstruksiya qilishdagi katta hajmli ishlarni hisobga olgan holda, konstruksiyalarni kuchaytirishning turli xil samarali usullaridan foydalanish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Bunga misol qilib, ko'plab binolarning yuk ko'taruvchi temirbeton ustun va devor konstruksiyalarini keltirish mumkin.

Turli materiallardan tayyorlangan ustunlarni kuchaytirishning eng samarali usullaridan biri "Iskanjaga olib kuchaytirish" dan foydalanish hisoblanadi. Qurilish amaliyotida quyidagi asosiy turdagi "Iskanjaga olib kuchaytirish" qo'llaniladi: po'lat, temirbeton va sement-qumli qorishmalardan. Tanlangan "Iskanjaga olib kuchaytirish" turiga qarab, ularning ish samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir: "Iskanjaga olib kuchaytirish" ning bo'ylama armaturalash foizi, beton sinfi yoki terim holatidagi qorishmaning markasi, shuningdek, kuchni konstruksiyaga uzatish sxemasi.

Kompozit polimer armatura bilan kuchaytirilgan beton va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini hisoblashda chegaraviy holatlar usulini qo'llash, kompozit armaturaning korroziyabardoshligini, yetarlicha mustahkamlikka ega ekanligini, me'yoriy yuklarda undan foydalanib kuchaytirilgan siqiluvchi elementlar darzbardoshlik va bikirlik bo'yicha talablarga javob bera olishini va yana bir muhim jihati nisbatan arzonligi va mahalliy xom-ashyodan tayyorlanishi e'tiborga olgan holda po'lat armaturaga munosib muqobil bo'la olishi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **"Kompozit materiallar yordamida kuchaytirilgan konstruksiyalarni hisoblash va loyihalash"** deb nomlangan ikkinchi bobida, turli xil kuchaytirish usullaridan foydalanib kuchaytirilgan siqilishga ishlovchi konstruksiyalarning yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash, kompozit materiallar bo'yicha ishonchlilik koeffitsiyentlar, shuningdek konstruksiyalarni kompozit armatura bilan kuchaytirish me'yorlari va tavsialari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Hozirgi vaqtda shisha kompozit armaturalar bilan kuchaytirilgan markaziy va nomarkaziy siqilishga ishlovchi ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismini hisoblash usuli mavjud emas. Ushbu tadqiqot ishi doirasida po'lat armatura bilan kuchaytirilgan konstruksiyalar mustahkamligini hisoblash uchun mavjud formulalardagi koeffitsiyentlar miqdori kompozit armaturaning fizik-mexanik xossalardan kelib chiqqan xolda o'zgartirilgan.

Shisha kompozit armatura uchun turli xil ishlash sharoitlarini hisobga oluvchi koeffitsiyentlar kiritilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

$m_{ad}=0,65$ -yuklarning barcha hisobiy yig'indilarida qo'llaniladigan uzoq vaqtli ta'sirlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent;

$m_{at}=0,9$ -yuqori haroratlar (ishlab chiqarishda 100 °C gacha qisqa vaqtli qizdirish, 80 °C li haroratning uzoq vaqtli ta'siri, 60 °C haroratda bug'lantirish) ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsiyent;

$m_{ak}=0,7-0,8$ -tajovuzkor muhitlarda konstruksiyalarni ekspluatasiya qilish jarayonida ularga tushadigan ta'sirni hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Kompozit polimer armaturaning siqilishdagi mustahkamligini aniqlash uchun quyidagi hisobiy nisbat o'rnatilgan:

$$f_{fds} = 0.2f_{fd} \quad (1)$$


bunda f_{fds} -kompozit polimer armaturaning siqilishdagi hisobiy mustahkamligi;
 f_{fd} -kompozit polimer armaturaning cho‘zilishdagi hisobiy mustahkamligi.

Temirbeton ustunlarni “Iskanjaga olib kuchaytirish” formulasi quyidagicha:


$$N \leq \psi \varphi m_g (R_b A_b + R_s A_s + R_{bk} A_{bk} + R_{sk} A_{sk}) \quad (2)$$

Namunalarni kuchaytirishdan oldingi konstruksiyaning hisobiy yuk ko‘tarish qobiliyati:

$$N \leq \psi \varphi (R_b A_b + R_s A_s) \quad (3)$$



1-rasm. Temirbeton ustun konstruksiyasini shisha kompozit beton yordamida “Iskanjaga olib kuchaytirish” usulini nazariy mexanika usuli bo‘yicha hisoblash sxemasi



2-rasm. Ustivorlikni baholash uchun hisobiy sxema: a) egrilikni aniqlashga, b) kuchaytirishdan oldingi va keyingi egilish sxemasi

Ushbu tadqiqot ishida qabul qilingan temirbeton ustun va g‘isht devorning derazalar orasidagi qismi kompozit armatura yordamida kuchaytirib, ularning hisobiy yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlash uchun quyidagi formulalar qabul qilindi:

$$Ne_0 \leq m_{ad} R_b b h_0 \cdot \frac{h_0}{2} + R_s A_s z_s + R_s b \delta \left(h_0 + a + \frac{\delta}{2} \right) + R_{sk} A_{sk} \left(h_0 + a + \frac{\delta}{2} \right) + R_{bk} b \delta \cdot \frac{\delta}{2} + R_{sk} A_{sk} \cdot \frac{\delta}{2} \quad (4)$$

$$Ne_0 \leq m_{ad} R_b b h_0 \left(\frac{h_0}{2} + \frac{\delta}{2} \right) + R_s A_s \left(h_0 + \frac{\delta}{2} \right) + R_{bk} b \delta \left(h_0 + a + \frac{\delta}{2} \right) + R_{sk} A_{sk} \left(h_0 + a + \frac{\delta}{2} \right) + R_s A_s \cdot \frac{\delta}{2} \quad (5)$$

bunda: m_{ad} – yuklarning barcha hisobiy yig‘indilarida qo‘llaniladigan uzoq muddatli ta’sirlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent; R_b – 1-guruh chegaraviy holatlari bo‘yicha betonning siqilishdagi hisobiy qarshiligi; b – namuna eni; h_0 – namunadagi po‘lat armatura markazidan namuna qirrasigacha bo‘lgan masofa; R_s – armaturaning cho‘zilishdagi hisobiy qarshiligi; A_s – armaturaning ko‘ndalang kesim yuzasi; z_s – namunadagi po‘lat armatura markazidan, namuna qirrasigacha bo‘lgan masofadan armatura himoya qatlamining ayirmasi; δ – namunalarni kuchaytirish qalinligi; a – armaturaning himoya qatlami; R_{sk} – shisha kompozit armaturaning cho‘zilishdagi hisobiy qarshiligi; A_{sk} – shisha kompozit armaturaning ko‘ndalang kesim yuzasi; R_{bk} – kuchaytiruvchi betonning 1-guruh chegaraviy holatlari bo‘yicha siqilishdagi hisobiy qarshiligi.

Dissertatsiyaning “Shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan siqilishga ishlovchi temirbeton ustun va g‘isht devorning derazalar orasidagi


qismi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini eksperimental tadqiq etish” deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarning vazifalari, sinov qurilmalari, vositalari va o‘lchov asboblari, sinov modellarini tayyorlash natijalari keltirilgan.

Mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida kompozit armaturalar bilan kuchaytirilgan temirbeton ustun va g‘isht devorning derazalar orasidagi qismining kuch ta’sirlari ostidagi holati hali yetarlicha o‘rganilmagan. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan shishaplastik armaturalar va qurilish amaliyotida eng ko‘p hajmda shuningdek barcha turdagi qurilish ob’ektlarida qo‘llaniluvchi oddiy og‘ir betonlar ustida tadqiqotlar o‘tkazilishi eng maqbul variant hisoblanadi.


Eksperimental tadqiqotlar uchun ko‘ndalang kesim yuzasi $b \times h = 20 \times 20$ sm, uzunligi $l_0 = 150$ sm bo‘lgan namuna ustunlar tayyorlandi. Ishchi armatura sifatida bo‘ylama armaturalarga $4\phi 8 AIII$, ko‘ndalang xomutlar uchun esa $\phi 6 AI$ po‘lat armaturalardan foydalanildi (3a-rasmga qarang).

Ushbu namuna ustunlari atrofiga $4\phi 6 ShKA$ armatura karkasi joylandi va qalinligi 3 sm bo‘lgan beton xalqa bilan kuchaytirish amalga oshirildi. Sinov namunalarining natijaviy o‘lchamlari $b \times h = 26 \times 26$ sm ni tashkil etdi. 3b-rasmda **UNP I** (nomarkaziy siqilishga ishlovchi po‘lat armatura bilan kuchaytirilgan ustun), **UNShKA II** (nomarkaziy siqilishga ishlovchi shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan ustun) va **UNPA III** (po‘lat xomutli nomarkaziy siqilishga ishlovchi shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan ustun) seriyali temirbeton ustun namunalarini kuchaytirish sxemalari ko‘rsatib o‘tilgan.


Balandligi 118,3 sm va kesim yuzasi 38×51 sm bo‘lgan **Kuchaytirilmagan I va G‘UShKA II** (shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan g‘isht devorning derazalar orasidagi qismi), **G‘UPA III** (po‘lat armatura bilan kuchaytirilgan g‘isht devorning derazalar orasidagi qismi) seriyali tajriba namunalari tayyorlangan bo‘lib, ular Farg‘ona politexnika institutiga qarashli “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasi laboratoriyasida sinovdan o‘tkazilgan.



3-rasm. a) kuchaytirilmagan ustun namunalarining armaturalanish sxemasi, b) UNP I, UNShKA II va UNPA III-seriyali tajriba namunalarining kuchaytirish sxemasi va geometrik o‘lchamlari



4-rasm. G'isht terish usulining umumiy ko'rinishi




5-rasm. G'isht devorning derazalar orasidagi qismi sinov namunalari armaturalanishining umumiy ko'rinishi: a) G'USHKA II, b) G'UPA III


Sinovlar boshlanishidan oldin ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismi namunalarida o'rnatilgan barcha o'lchov asboblari bo'yicha boshlang'ich o'lchovlar yozib olindi. Bu ko'rsatkichlar "Shartli nol" sifatida qabul qilindi. Yuklash sekinlik bilan bir necha bosqichda berildi. Bosqich yuki hisobiy buzuvchi yukning taxminan 10%ini tashkil etdi. Har bir bosqichda yuk berib bo'lingandan so'ng, 5-10 minutgacha uning muvozanatlashishi kutib turildi. Har bir bosqich so'ngida o'lchov asboblari bo'yicha ko'rsatkichlar yozib olindi.

Dissertatsiyaning "Shisha kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati" deb nomlangan to'rtinchi bobida kompozit armatura bilan kuchaytirilgan siqilishga ishlovchi temirbeton ustun va g'isht devorning derazalar orasidagi qismining mustahkamlik, bikirlik va yoriqbardoshligini aniqlash uchun o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.


UNP I (nomarkaziy siqilishga ishlovchi po'lat armatura bilan kuchaytirilgan ustun)-ushbu seriyadagi temirbeton ustun namunalariga 4Ø8AIII po'lat ishchi armaturaga, 14Ø6AI xomutni 100 mm qadam bilan karkas hosil qilib kuchaytirish hisoblaniladi.




6-rasm. Sinov ustunlarida a) indikator, b) messuralarning joylashishi va o'rnatilish sxemalari



7-rasm. UNP I-seriyali namunaning v) sinovdan oldingi, g) sinovdan keyingi umumiy ko'rinishi



8-rasm. UNP I-3 seriyali namunalarning betonining “Kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafigi



9-rasm. UNP I-3 seriyali namunalarning armaturalaridagi “Kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafigi

UNP I-seriyali namunalarning sinov natijalarini tahlil qilish asosida quyidagilar aniqlandi:

UNP I-1,2,3 seriyali namunalarning “Kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafiklarini qayta ishlash natijalariga ko‘ra, yuk qo‘yilish eksentrisiteti mos ravishda 1,2,3 namunalar uchun 0,30 sm, 0,54 sm va 4,63 sm ni tashkil etdi. 3-namunaga qo‘yilgan yuk nomarkaziy siqilishning 2-holati ya’ni kichik eksentrisitet holatida yo‘naltirilgan;

UNSHKA II (nomarkaziy siqilishga ishlovchi shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan ustun)-seriyadagi temirbeton ustun namunalarga 4Ø6ShKA kompozit ishchi armaturaga, 14Ø4ShKA xomutni 100 mm qadam bilan karkas hosil qilib kuchaytirish hisoblaniladi.

UNShKA II-seriyali namuna betonining “Kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafiklarini qayta ishlash natijalariga ko‘ra, kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan 3 ta namunalar uchun mos ravishda yuk qo‘yilish eksentrisiteti: 0,11sm, 0,20sm va 3,01smni tashkil etdi. Bu nomarkaziy siqilishning 3-holatiga to‘g‘ri keladi.



10-rasm. UNShKA II-seriyali ustun namunalarni kompozit armatura bilan kuchaytirish



11-rasm. UNShKA II-seriyali tajriba namularining b) sinovgacha, v) sinovdan keyingi umumiy ko‘rinishi.



$0,8 \times N_{buz}$ yukda o‘lchov vositalari natijalariga ko‘ra namunalar deformatsiyalari quyidagilarni tashkil etdi:


$\varepsilon = (1,26 \div 2,0) \times 10^{-4}$ (In1 ÷ In4 indikator ko'rsatgichlari bo'yicha siqilgan betondagi deformatsiyalar).

$\varepsilon = (0,29 \div 0,49) \times 10^{-4}$ (M1 ÷ M4 messura ko'rsatgichlari bo'yicha kompozit armaturadagi deformatsiyalar).


UNShKA II-seriyali kompozit armatura yordamida kuchaytirilgan namunalarning yuk ko'tarish qobiliyati **UNP I**-seriyali po'lat armatura bilan kuchaytirilgan namunalardan taqqoslaganda yuk ko'tarish qobiliyati:

1) 3-namunada nomarkaziy siqilish holatida (juda kichik eksentrisitet $e_0 / h \leq 0,17$)-12 % ga;

2) 1 va 2-namunalarda nomarkaziy siqilish holatida (juda kichik eksentrisitet $e_0 / h \leq 0,17$)-13 % ga kamroq ekanligi qayd etildi.



12-rasm. UNShKA II-3 seriyali namunalarning betonining “Kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafigi



13-rasm. UNShKA II-1 seriyali namunalarning armaturalaridagi “Kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik” bog‘liqlik grafigi

UNPA III (po'lat xomutli nomarkaziy siqilishga ishlovchi shisha kompozit armatura bilan kuchaytirilgan ustun)-seriyadagi temirbeton ustun namunalari 4Ø6ShKA kompozit ishchi armaturaga 14Ø6AI po'lat xomutni 100 mm qadam bilan karkas hosil qilib kuchaytirish hisoblaniladi.



14-rasm. UNPA III-seriyali ustun namunalari po'lat xomut va kompozit armatura bilan kuchaytirish



15-rasm. UNPA III-seriyali ustun namunalari sinovdan keyingi umumiy ko'rinishi

$0,8 \times N_{buz}$ yukda o'lchov vositalari natijalariga ko'ra namunalarning deformatsiyalari quyidagilarni tashkil etdi:

$\varepsilon = (0,8 \div 2,1) \times 10^{-4}$ (In1 ÷ In4 indikator ko'rsatgichlari bo'yicha siqilgan betondagi deformatsiyalar)


$\varepsilon = (0,31 \div 0,62) \times 10^{-4}$ (M1 ÷ M4 messura ko'rsatgichlari bo'yicha kompozit armaturadagi deformatsiyalar)

UNPA III-seriyali kompozit armatura va po'lat armatura xomut yordamida kuchaytirilgan namunalarning yuk ko'tarish qobiliyati UNP I-seriyali po'lat armatura bilan kuchaytirilgan namunalar bilan taqqoslaganda:


1) 3-namunada nomarkaziy siqilish holatida (juda kichik eksentrisitet $e_0 / h \leq 0,17$) -8 % ga;

2) 1 va 2-namunalarda nomarkaziy siqilish holatida (juda kichik eksentrisitet $e_0 / h \leq 0,17$) -9 % ga kamroq.

Yoriqlarni hosil qilgan yuk miqdori 40 ÷ 46 t ni, ya'ni buzuvchi yukning 60 ÷ 70% ga to'g'ri keldi.



16-rasm. UNPA III-3 seriyali namunalarning betonining “Kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik” bog'liqligi grafigi



17-rasm. UNPA III-3 seriyali namunalarning armaturalaridagi “Kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik” bog'liqligi grafigi

Tadqiqot ishi doirasida shisha kompozit va po'lat armatura bilan kuchaytirilgan g'isht devorning derazalar orasidagi qismi mustahkamligi va yoriqbardoshligining kuchaytirilmagan namunaga nisbatan samaradorligini baholash uchun 3 ta seriya va har bir seriyada 3tadan sinov namunalari tayyorlandi va sinov o'tkazildi.

Kuchaytirilmagan I g'isht terimining deformatsiyalanish xolati bizga namunalardagi yuklanish markaziy siqilishga yaqin deb ta'kidlashga imkon beradi. Bunda:

-bo'ylama “y” o'qga nisbatan yuk qo'yilish eksentrisitet qiymatlari (namuna qalinligi bo'yicha $\delta=38$ sm) tajriba sinov namunalarda 0,46 sm dan 1,10 sm gacha o'zgargan;

-birinchi mayda yoriqlar g'isht devorning derazalar orasidagi qismining uzunligi bo'ylab ($\delta=51$ sm) o'rta qismida yuklanishning $(0,8 \div 0,85) \times N_{buz}$ qiymatida hosil bo'ldi;

-Kuchaytirilmagan I-1,2 va 3 namunalarning buzilishi 221,0 kN, 229,0 kN va 230,0 kN da sodir bo'ldi. Ushbu holatda, g'isht terimining siqilishdagi hisobiy qarshiligi $R=1,1$ MPa ni tashkil etdi.

G'USHKA II (shisha kompozit armatura to'ri bilan kuchaytirilgan g'isht devorning derazalar orasidagi qismi)-seriyali namunalarning sinov natijalarini tahlili qilish asosida quyidagilar aniqlandi:

1. G'USHKA II-seriyali namunalarning buzilishi 317,0 kN, 360,0 kN va 323,0 kN da sodir bo'ldi. Bunda g'isht devorning derazalar orasidagi qismining siqilishdagi vaqtinchalik qarshiligi 1,67 MPa, 1,86 MPa va 1,64 MPa ni tashkil etdi;

